

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA INTERAKSION DEYKTIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL TADQIQI

Usmonova Mexrikamol Odiljonovna

Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti.

e-mail: mehrikamolusmonova137@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0001-6117-6865>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi interakSION deyktik birliklarning funksional-pragmatik xususiyatlari qiyosiy aspektda tadqiq etiladi. InterakSION deyksis muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy maqom, kommunikativ masofa, hurmat, yaqinlik va nutqiy vaziyatni ifodalovchi muhim lisoniy mexanizm sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda shaxs olmoshlari, murojaat shakllari, vokativ birliklar, modal vositalar, xushmuomalilik konstruksiyalari hamda o'zbek tiliga xos morfologik ko'rsatkichlarning kommunikativ funksiyalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil natijasida ingliz tilida interakSION munosabatlarning ko'proq sintaktik, modal va leksik-pragmatik vositalar orqali, o'zbek tilida esa shaxs-son, egalik va ko'plik shakllari, hurmat ifodalovchi birliklar hamda ijtimoiy-madaniy murojaat vositalari orqali namoyon bo'lishi asoslanadi. Mazkur farqlar ikki tilning grammatik qurilishi bilan bir qatorda, ularning milliy-madaniy kommunikativ me'yorlari bilan ham bog'liq ekanligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: interakSION deyksis, deyktik birlik, ijtimoiy deyksis, pragmalinqvistika, kommunikativ masofa, shaxs olmoshi, vokativ, modallik, xushmuomalilik, ingliz tili, o'zbek tili.

ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ИНТЕРАКЦИОНАЛЬНЫХ ДЕЙКТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Усмонова Мехрикамом Одилжоновна

Андижанский государственный институт иностранных языков,
докторант.

Аннотация.

В статье в сопоставительном аспекте исследуются функционально-прагматические особенности интеракциональных дейктических единиц в английском и узбекском языках. Интеракциональный дейксис рассматривается как важный языковой механизм выражения социального статуса участников общения, коммуникативной дистанции, уважения, близости и особенностей речевой ситуации. Анализируются коммуникативные функции личных местоимений, форм обращения, вокативных единиц, модальных средств, конструкций вежливости, а также характерных для узбекского языка морфологических показателей. Установлено, что в английском языке интеракциональные отношения преимущественно выражаются посредством синтаксических, модальных и лексико-прагматических средств, тогда как в узбекском языке значительную роль играют формы лица и числа, притяжательные и множественные аффиксы, средства выражения уважения и социально-культурно маркированные обращения. Выявленные различия обусловлены как структурными особенностями двух языков, так и национально-культурными нормами речевого взаимодействия.

Ключевые слова: интеракциональный дейксис, дейктическая единица, социальный дейксис, прагмалингвистика, коммуникативная дистанция, личное местоимение, вокатив, модальность, вежливость, английский язык, узбекский язык.

FUNCTIONAL STUDY OF INTERACTIONAL DEICTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK

Usmonova Mexrikamol Odiljonovna

Andijan State Institute of Foreign Languages, Doctoral Student.

Abstract.

This article provides a comparative analysis of the functional and pragmatic

features of interactional deictic units in English and Uzbek. Interactional deixis is treated as an important linguistic mechanism for expressing social status, communicative distance, respect, interpersonal closeness, and the characteristics of a speech situation. Particular attention is paid to the communicative functions of personal pronouns, forms of address, vocative units, modal devices, politeness constructions, and morphological markers characteristic of Uzbek. The analysis demonstrates that interactional relations in English are predominantly realized through syntactic, modal, and lexical-pragmatic devices, whereas Uzbek makes extensive use of person-number forms, possessive and plural affixes, honorific expressions, and socio-culturally marked forms of address. The differences identified in the two languages are determined not only by their grammatical structures but also by culturally specific norms of interpersonal communication.

Keywords: interactional deixis, deictic unit, social deixis, pragmalinguistics, communicative distance, personal pronoun, vocative, modality, politeness, English, Uzbek.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda lisoniy birliklarning ma'nosini ularning nutqiy vaziyatdagi qo'llanishi, kommunikativ maqsadi va muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq holda o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Ayniqsa, pragmalingvistika va diskurs tahlilida til birliklarining nafaqat nominativ yoki grammatik xususiyatlari, balki real kommunikatsiyada qanday funksiyani bajarishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan deysis hodisasi til tizimi bilan nutqiy vaziyat o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlovchi muhim pragmatik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Deyksis tushunchasi an'anaviy ravishda so'zlovchi, tinglovchi, makon va zamonga nisbatan shakllanadigan ishora munosabatlarini ifodalaydi. Klassik tadqiqotlarda shaxs, makon va zamon deysisi ushbu hodisaning asosiy ko'rinishlari sifatida tavsiflangan. Biroq muloqot jarayonida til birliklari faqat referentni ko'rsatish bilan cheklanmaydi. Ular so'zlovchi va adresatning ijtimoiy mavqei, o'zaro yaqinligi, kommunikativ masofasi, hurmat darajasi hamda nutqiy vaziyatga munosabatini ham ifodalaydi. Bu esa deysisni funksional va sotsiopragmatik nuqtai nazardan kengroq tadqiq etishni talab qiladi.

Interaksion deysitik birliklar aynan muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini lisoniy jihatdan tashkil etishda faol qatnashadi. Shaxs olmoshlari, murojaat shakllari, vokativlar, modal konstruksiyalar, hurmat ifodalovchi vositalar, shaxs-son va egalik ko'rsatkichlari muayyan kommunikativ vaziyatda adresantning adresatga nisbatan pozitsiyasini belgilashi mumkin. Masalan, suhbatdoshga nisbatan tenglik yoki subordinatsiya, yaqinlik yoki masofa, rasmiylik yoki norasmiylik kabi munosabatlarning tanlanishi tegishli deysitik birliklarning funksional yukini o'zgartiradi.

Ingliz va o'zbek tillarida bunday munosabatlarni ifodalash mexanizmlari ularning strukturaviy xususiyatlari bilan ham bog'liq. Ingliz tilida ikkinchi shaxs uchun universal you olmoshining qo'llanishi sababli ijtimoiy masofa va xushmuomalilik ko'pincha modal fe'llar, bilvosita nutq aktlari, murojaat birliklari, vokativlar va sintaktik konstruksiyalar orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa sen-siz oppozitsiyasi, fe'ning shaxs-son shakllari, egalik va ko'plik affikslarining pragmatik qo'llanishi hamda aka, opa, ustoz, domla, uka kabi ijtimoiy-madaniy murojaat birliklari kommunikantlar o'rtasidagi munosabatni ancha ochiq ifodalash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi interaksion deysitik birliklarning funksional-pragmatik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish, ularning muloqotda ijtimoiy masofa, hurmat, yaqinlik, ierarxiya va kommunikativ pozitsiyani ifodalashdagi vazifalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda ikki tildagi shaxs olmoshlari, vokativ va murojaat birliklari, modal-sintaktik vositalar hamda morfologik ko'rsatkichlarning interaksion funksiyalariga alohida e'tibor qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Interaksion deysitik birliklarning ijtimoiy-kommunikativ xususiyatlarini izohlashda Asif Aghaning qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olim Language and Social Relations asarida shaxs deysisi, murojaat shakllari va honorifik birliklarni til orqali ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi vositalar sifatida tahlil qiladi. Agha fikricha, shaxsga murojaat qiluvchi til birliklari faqat referentni aniqlash vazifasini bajarmaydi, balki suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqei, o'zaro munosabati va kommunikativ rolini ham indekslaydi. Uning "person deixis registers" hamda "honorific registers"ga oid yondashuvi interaksion deysisni muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy pozitsiyalarini belgilovchi tizim sifatida tushunishga imkon beradi (Agha, 2007).

Murojaat birliklarini interaksion jihatdan o'rganishda Friederike Brauning Terms of Address: Problems of Patterns and Usage in Various Languages and Cultures monografiyasi muhim manbalardan biridir. Braun turli tillardagi murojaat tizimlarini qiyoslab, adresatga murojaat shaklining tanlanishi suhbatdoshlarning yoshi, ijtimoiy mavqei, tanishlik darajasi, kommunikativ vaziyat va jamiyatdagi nutqiy me'yorlar bilan bog'liqligini

ko'rsatadi. Olim pronominal va nominal murojaat shakllarini yagona ijtimoiy-kommunikativ tizim tarkibida ko'rib chiqadi (Braun, 1988). Bu yondashuv ingliz tilidagi Mr/Ms, sir, madam, first name kabi shakllar bilan o'zbek tilidagi siz, aka, opa, amaki, xola, ustoz singari murojaat birliklarini ularning adresant-adresat munosabatini boshqarish funksiyasi asosida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Interaksion deyksisning olmoshlar orqali ifodalanishiga oid muhim qarashlar Paul Friedrich tadqiqotlarida uchraydi. Uning Social Context and Semantic Feature: The Russian Pronominal Usage nomli ishida olmoshlarning tanlanishi faqat grammatik shaxs kategoriyasi bilan emas, balki kommunikantlarning ijtimoiy munosabati va konkret nutqiy kontekst bilan ham bog'liq ekanligi asoslanadi. Friedrich olmosh shaklining qo'llanishiga ijtimoiy masofa va kommunikativ vaziyat ta'sir qilishini ko'rsatadi (Friedrich, 1972). Ushbu yondashuv o'zbek tilidagi sen-siz qarama-qarshiligini funksional jihatdan izohlashda muhimdir, chunki bir adresatga nisbatan sen yoki siz shaklining tanlanishi referentni o'zgartirmagan holda so'zlovchining munosabati va ijtimoiy pozitsiyasini o'zgartiradi.

Mazkur qarashlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, Agha deyktik va honorifik birliklarning ijtimoiy-indeksikal xususiyatiga, Braun murojaat shakllarining kommunikativ tanloviga, Friedrich esa olmosh variantlarining ijtimoiy kontekst bilan bog'liqligiga e'tibor qaratadi. Shu asosda ingliz va o'zbek tillaridagi interaksion deyktik birliklarni adresant-adresat munosabati, ijtimoiy masofa va kommunikativ vazifa nuqtai nazaridan funksional tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda asosiy metod sifatida funksional-pragmatik tahlil metodi qo'llanildi. Ushbu metod ingliz va o'zbek tillaridagi interaksion deyktik birliklarning grammatik yoki leksik shaklini alohida tavsiflashdan ko'ra, ularning konkret kommunikativ vaziyatda qanday vazifa bajarishini aniqlashga yo'naltiriladi.

Tahlil jarayonida shaxs olmoshlari, murojaat va vokativ birliklar, modal konstruksiyalar, hurmat ifodalovchi shakllar hamda morfologik ko'rsatkichlarning adresant-adresat munosabatini shakllantirishdagi funksiyasi asosiy mezon sifatida olindi. Har bir birlik uning ijtimoiy masofa, hurmat, yaqinlik, rasmiylik, norasmiylik va kommunikativ pozitsiyani ifodalash imkoniyati nuqtai nazaridan baholandi. Masalan, ingliz tilidagi you shakli turli ijtimoiy vaziyatlarda grammatik jihatdan o'zgarmagan holda qo'llansa, uning interaksion funksiyasi sir, professor, please, could, would kabi qo'shimcha pragmatik vositalar orqali aniqlanadi. O'zbek tilida esa sen-siz oppozitsiyasi, -san/-siz, -ing/-ingiz shakllari va aka, opa, ustoz, domla kabi murojaat birliklari suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatni bevosita ifodalashi mumkin.

Funksional-pragmatik tahlil asosida ikki tilda bir xil kommunikativ vazifani bajaruvchi, biroq turli strukturaviy vositalar orqali ifodalanadigan interaksion deyktik birliklarning umumiy va farqli xususiyatlari aniqlanadi. Natijada tahlil markaziga til birligining shakli emas, balki uning real muloqotdagi ijtimoiy-kommunikativ funksiyasi qo'yiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Funksional-pragmatik tahlil ingliz va o'zbek tillaridagi interaksion deyktik birliklar bir xil kommunikativ vazifani turli strukturaviy vositalar yordamida bajarishini ko'rsatadi. Bunda asosiy farq adresantning adresatga nisbatan hurmat, yaqinlik, ijtimoiy masofa va kommunikativ pozitsiyasini qanday ifodalashida namoyon bo'ladi. O'zbek tilida mazkur munosabatlar ko'pincha morfologik ko'rsatkichlar hamda murojaat birliklari orqali ochiq ifodalansa, ingliz tilida modal, sintaktik va leksik-pragmatik vositalar muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tilidagi keling – kelingiz – kelinglar – kelsinlar shakllari interaksion deyksisning funksional imkoniyatlarini yaqqol ko'rsatadi. Keling shakli odatiy hurmat va muloqot odobini ifodalasa, kelingiz yuqori darajadagi rasmiy yoki an'anaviy hurmat tusiga ega. Kelinglar ko'plik ma'nosi bilan birga ayrim kommunikativ vaziyatlarda yaqinlik yoki guruhga murojaatni ifodalaydi. Kelsinlar shaklida esa uchinchi shaxs ko'plik ko'rsatkichi bir shaxsga nisbatan qo'llanib, yuqori ijtimoiy hurmat va masofani yuzaga chiqarishi mumkin. Masalan, "Domla, kitobingizni olib keldilar" jumlasida -lar shakli real ko'plikni emas, referentning ijtimoiy maqomini pragmatik jihatdan yuksaltirish vazifasini bajaradi.

Ingliz tilida ikkinchi shaxs uchun universal you shaklining mavjudligi ijtimoiy masofani boshqa vositalar orqali ifodalashni talab qiladi. "Bring the book", "Could you please bring the book?" va "I was wondering if you might be able to bring the book, sir" misollari buni aniq ko'rsatadi. Birinchi jumla bevosita buyruq bo'lib, yaqin munosabat yoki yuqori kommunikativ mavqeni anglatishi mumkin. Ikkinchi variantda could va please birliklari buyruqning illokutiv kuchini yumshatib, standart xushmuomalilikni shakllantiradi. Uchinchi misolda esa murakkab bilvosita konstruksiya, might modalligi va sir murojaat birligi birgalikda yuqori kommunikativ masofani yaratadi.

Interaksion deyksisning muhim ko'rinishlaridan yana biri qarindoshlik atamalarining murojaat funksiyasida qo'llanishidir. O'zbek tilida aka, uka, opa, singil, tog'a, xola kabi birliklar faqat biologik qarindoshlikni emas, balki notanish yoki qarindosh bo'lmagan suhbatdoshga nisbatan hurmat, yaqinlik va ijtimoiy moslashuvni ham ifodalashi mumkin. Masalan, yoshi katta erkakka aka yoki tog'a, yoshroq shaxsga

ukam tarzida murojaat qilish orqali adresant suhbatdoshni kommunikativ jihatdan “yaqinlashtiradi”. Ingliz tilida esa notanish shaxsga murojaatda ko’proq Excuse me, Sir / Ma’am kabi neytral yoki rasmiy vositalar tanlanadi. Shu sababli o’zbekcha qarindoshlik murojaatlarini ingliz tiliga so’zma-so’z ko’chirish har doim ham bir xil pragmatik ta’sirni bermaydi.

Birinci shaxs ko’plik shakllari ham interaksion pozitsiyani belgilash imkoniyatiga ega. Ingliz tilidagi “Shall we start?” va “Let’s solve this together” misollarida we hamda let’s tinglovchini birgalikdagi faoliyatga jalb etib, inkluzivlikni yuzaga chiqaradi. Aksincha, “We have decided to terminate your contract” jumlasida we adresatni qaror qabul qiluvchi guruh tarkibiga kiritmaydi va institutsional-ekslyuziv ma’noni bildiradi. O’zbek tilidagi “Qani, choydan olaylik” jumlasida -aylik shakli suhbatdoshni harakatga qo’shuvchi kuchli inkluziv vosita bo’lsa, “Biz bu masalani ko’rib chiqdik” shakli rasmiy yoki institutsional pozitsiyani bildirishi mumkin.

1-jadval. Interaksion deytik birliklarning funksional-pragmatik qiyosi

Funksional mezon	Ingliz tilidagi misol	O’zbek tilidagi misol	Pragmatik natija
Bevosita buyruq	Bring the book.	Kitobni olib kel.	Minimal ijtimoiy masofa yoki yuqori kommunikativ mavqe
Xushmuomala iltimos	Could you please bring the book?	Kitobni olib kela olasizmi?	Buyruq kuchining yumshatilishi, hurmat
Yuqori darajadagi masofa	I was wondering if you might be able to bring the book, sir.	Domla, kitobni olib kelsangiz.	Rasmiylik, adresat maqomini yuqori belgilash
Morfologik hurmat	Maxsus ikkinchi shaxs hurmat olmoshi mavjud emas	keling / kelingiz / kelsinlar	O’zbek tilida hurmat morfologik jihatdan ochiq ifodalanadi
Ijtimoiy murojaat	Sir / Ma’am	aka / opa / tog’a / xola / domla	Ingliz tilida neytral-rasmiy, o’zbek tilida ijtimoiy yaqinlashtiruvchi funksiya
Inkluzivlik	Shall we start? / Let’s solve this together.	Qani, choydan olaylik.	Adresatni umumiy faoliyatga jalb qilish
Ekslyuziv / institutsional pozitsiya	We have decided to terminate your contract.	Biz bu masalani ko’rib chiqdik.	Guruh yoki tashkilot nomidan pozitsiyalanish

Olib borilgan funksional-pragmatik tahlil natijasida uchta asosiy tendensiya aniqlandi. Birinchidan, o’zbek tilida interaksion ma’no morfologik jihatdan kuchli ifodalanib, hurmat va ijtimoiy masofa shaxs-son, ko’plik hamda fe’l shakllariga yuklanishi mumkin. Ikkinchidan, ingliz tilida mazkur vazifani modal fe’llar, bilvosita sintaktik konstruksiyalar, vokativlar va xushmuomalilik formulalari ko’proq bajaradi. Uchinchidan, o’zbek tilidagi qarindoshlik terminlarining keng ijtimoiy-murojaat funksiyasi interaksion deyxsisning milliy-madaniy xususiyatini yaqqol namoyon etadi.

Shunday qilib, interaksion deytik birliklarning funksiyasi ularning lug’aviy yoki grammatik ma’nosidan kengroq bo’lib, konkret kommunikativ vaziyatdagi adresant-adresat munosabati bilan belgilanadi. Ingliz va o’zbek tillaridagi strukturaviy farqlarga qaramay, har ikki til tizimi interaksion deyxsis orqali ijtimoiy masofa, hurmat, yaqinlik, inkluzivlik va institutsional pozitsiyani samarali ifodalash imkoniyatiga ega.

XULOSA

Tadqiqot natijalari ingliz va o’zbek tillaridagi interaksion deytik birliklar muloqot ishtirokchilari o’rtasidagi ijtimoiy masofa, hurmat, yaqinlik va kommunikativ pozitsiyani ifodalashda muhim funksional-pragmatik vazifa bajarishini ko’rsatdi. Ingliz tilida bunday munosabatlar asosan modal fe’llar, bilvosita sintaktik konstruksiyalar, vokativlar va xushmuomalilik formulalari orqali ifodalansa, o’zbek tilida shaxs-son shakllari, egalik va ko’plik affikslari, sen-siz qarama-qarshiligi hamda aka, opa, ustoz, domla kabi ijtimoiy-madaniy murojaat birliklari faol qo’llanadi. Shu bois ikki tilda bir xil interaksion ma’no turli strukturaviy vositalar orqali yuzaga chiqadi. Funksional-pragmatik tahlil interaksion deytik birliklarning ma’nosi faqat grammatik shakl bilan belgilanmasligini, balki konkret nutqiy vaziyat, adresant-adresat munosabati va milliy-madaniy muloqot me’yorlari bilan chambarchas bog’liqligini tasdiqlaydi. Ingliz va o’zbek tillaridagi ushbu farqlarni hisobga olish madaniyatlararo kommunikatsiyada pragmatik nomuvofiqliklarning oldini olish, tarjimada kommunikativ mazmunni to’g’ri yetkazish hamda interaksion munosabatlarni adekvat talqin qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Agha A. Registers of Person Deixis // Language and Social Relations. – Cambridge: Cambridge

- University Press, 2007. – P. 278–300. DOI: 10.1017/CBO9780511618284.008. URL: <https://doi.org/10.1017/CBO9780511618284.008>
2. Braun F. Terms of Address: Problems of Patterns and Usage in Various Languages and Cultures. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 1988. – 372 p. DOI: 10.1515/9783110848113. URL: <https://doi.org/10.1515/9783110848113>
3. Friedrich P. Social Context and Semantic Feature: The Russian Pronominal Usage // Directions in Sociolinguistics: The Ethnography of Communication / Ed. by J. J. Gumperz, D. Hymes. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1972. – P. 270–300. URL: <https://wals.info/refdb/record/Friedrich-1972>
4. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. DOI: 10.1017/CBO9780511813085. URL: <https://doi.org/10.1017/CBO9780511813085>
5. Huang Y. Pragmatics. 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – ISBN 978-0-19-957776-7. URL: <https://global.oup.com/academic/product/pragmatics-9780199577767>
6. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138 p. – ISBN 978-0-19-437207-7. URL: <https://books.google.com/books?id=E2SA8ao0yMAC>
7. Verschueren J. Understanding Pragmatics. – London: Arnold, 1999. – 295 p. – ISBN 978-0-340-64623-6. URL: <https://search.worldcat.org/title/39085420>
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – 320 b. URL: <https://akbt.urspi.uz/uz/books/3672>